

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

SHARIPOV SHUHRAT PO‘LATOVICH

**KOMBINATSIYALASHGAN MASHINA TEKISLAGICHINING
TEXNOLOGIK ISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA
PARAMETLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarejasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Sharipov Shuhrat Po'latovich

Комбинатсиялашган mashina tekislagichining texnologik ish jarayonini
takomillashtirish va parametrlarini asoslash..... 3

Шарипов Шухрат Пулатович

Усовершенствование технологического процесса работы и
обоснование параметров выравнителя комбинированной машины..... 19

Sharipov Shukhrat Pulatovich

Improvement of the technological process of work and justification of the
parameters of the equalizer of the combined machine..... 35

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 39

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

SHARIPOV SHUHRAT PO‘LATOVICH

**KOMBINATSIYALASHGAN MASHINA TEKISLAGICHINING
TEXNOLOGIK ISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA
PARAMETLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3359 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **To'xtaqo'ziyev Abdulalim**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ravshanov Hamroqul Amirqulovich**
texnika fanlari doktori, dotsent

G'aybullayev Burxonjon Shermatjonovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **“TIQXMMI” MTUning Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «28» noyabr soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (82 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «06» noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil «06» noyabr da № 34 raqamli reyestr bayonnomasi).



F.M. Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

D.Sh. Chuyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Z.L. Batirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo'lgan tuproqqa ishlov berish mashinalarini ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. «Dunyo miqyosida ekishdan oldin tuproqqa ishlov beriladigan maydon 1,6 mlrd. gektarni tashkil etishi»¹ ni hisobga olsak, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor tuproqqa ishlov berish mashina va qurilmalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Shu bilan birga daladan bir o'tishda tuproqni ekishga tayyorlash bo'yicha barcha texnologik jarayonlarni qo'shib bajaradigan kombinatsiyalashgan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda qishloq xo'jalik ekinlarining urug'larini ekishdan oldin dalalarni ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda respublikamiz dexqonchiligida paxtachilik bilan bir qatorda g'allachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. Respublika xalqi va sanoatini mo'l-ko'l, arzon va sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, ekinlarni yetishtirish bo'yicha agrotexnika tadbirlarini qisqa muddatlarda sifatli o'tkazish va fan-texnikaning eng so'nggi erishgan yutuqlari asosida yaratilgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalaridan unumli foydalanish talab qilinadi.

Respublikamizda yerlardan unumli foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni tadbiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, «...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash»² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, yerlarni ekishga tayyorlash bo'yicha barcha texnologik jarayonlar (tuproqni yumshatish, dalaning yuza qismini tekislash, zichlash va dala yuzasida mayin tuproq qatlamini hosil qilish) ni qo'shib bajaradigan kombinatsiyalashgan mashinalar ishlab chiqish va ular ishchi qismlarining talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan parametrlarini asoslash muhim masalalardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo'jaligi

¹ www.fao.org/docrep/018/i1688r/i1688r03.pdf, www.agroru.com/blog/novinki_agromislennogo_kompleksa.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni.

mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida» gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-aprelda tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligining ustuvor yo'nalishlari, global, mintaqaviy va hududiy muammolarining ilmiy yechimlarini tadqiq qilish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dastur» da keltirilgan ustuvor yo'nalishga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yerni tekislash mashinalari va ish organlarini yaratish va qo'llash, ularning ish ko'rsatkichlarini o'rganish va parametrlarini asoslash, shuningdek ular bilan tuproqning o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini o'rganish bo'yicha xorijda A.I.Kupchenko, Y.I.Kuznetsov, V.I.Taranin, A.V.Shubin (Rossiya Federatsiyasi), G. Schnitkey (AQSH), B.Ende (Avstraliya), M.A. Elsheyx (Sudan) hamda boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu yo'nalishda respublikamizda tadqiqotlar M.A.Axmedjanov, R.I.Boymetov, A.To'xtaqo'ziyev, V.N.Sokolov, A.T.Egamov, K.Muxammadsodiqov, B.K.Utepbergenov, M.P.Kalimbetov, S.K.Qo'chqorov, M.M.Xalilov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan mashina va qurilmalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Ammo, bu tadqiqotlarda respublikamizda yerni paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun tayyorlashda qo'llaniladigan kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining ish jarayonini takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining ish jarayonini takomillashtirish va uning kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlovchi parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda yerni ekish oldidan ishlov berishda qo'llaniladigan texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarini va ularga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

yerni ekish oldidan ishlov berishda qo'llaniladigan kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining ish jarayonini takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

ish jarayoni takomillashtirilgan va parametrlari asoslangan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning tajriba nusxasini tayyorlash va dala sinovlarini o'tkazish;

takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Tuproqning fizik-mexanik xossalari, kombinatsiyalashgan mashinaning tekislagichi va uning tuproq bilan ta'sirlashish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini ifodalovchi analitik bog'lanishlar va matematik modellar hamda tekislagichning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini uning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika va matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari va mavjud meyoriy hujjatlar (O'z DSt 3412:2019 «Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari» va O'z DSt 3193:2017 «Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli») da keltirilgan usullardan foydalanilgan.

Takomillashtirilgan ish jarayoni va asoslangan parametrlarga ega bo'lgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning iqtisodiy samaradorligi РД Уз 63.03-98 «Испытания сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники» bo'yicha aniqlangan.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining takomillashtirilgan texnologik ish jarayoni ishlab chiqilgan;

texnologik ish jarayoni takomillashtirilgan tekislagichning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini ifodalovchi va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan matematik modellar va analitik ifodalar kombinatsiyalashgan mashinaning yumshatkich va o'qyoysimon panjalaridan hosil bo'lgan notekisliklarni talab darajasida tekislanishi ta'minlanishi shartlari hisobga olinib olingan;

takomillashtirilgan tekislagichning ish ko'rsatkichlarini uning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari o'rganilgan hamda ularni ifodalovchi regressiya tenglamalari olingan;

takomillashtirilgan tekislagich parametrlarining maqbul qiymatlari uning sifat va energetik ko'rsatkichlarini baholovchi regressiya tenglamalarini birga yechish orqali aniqlangan;

takomillashtirilgan ish jarayoni va asoslangan parametrlarga ega bo'lgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning agrotexnik hamda energetik ish ko'rsatkichlari o'rganilgan va iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

takomillashtirilgan ish jarayoni va asoslangan parametrlarga ega bo'lgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashina qo'llanilganda daladan bir o'tishda tuproqni ekishga tayyorlash bo'yicha barcha texnologik jarayonlar qo'shib bajarilishi hisobiga yonilg'i va moddiy xarajatlar hamda mehnat sarfini kamayishi va ish unumini oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining ish jarayoni takomillashtirilganligi va uning kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlaydigan parametrlari asoslanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash ish organlarining parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina qo'llanilganda daladan bir o'tishda tuproqni ekishga tayyorlash bo'yicha barcha texnologik jarayonlar qo'shib bajarilishi hisobiga ekspluatatsion xarajatlar va mehnat sarfini kamayishi hamda ish unumini oshishiga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining texnologik ish jarayoni takomillashtirilgan va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

takomillashtirilgan ish jarayoni va asoslangan parametrlarga ega bo'lgan kombinatsiyalashgan mashinaga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 30-maydagi 05/34-06/497-son ma'lumotnomasi). Natijada daladan bir o'tishda tuproqni ekishga tayyorlash bo'yicha barcha texnologik jarayonlarni qo'shib bajarish imkonini beradigan kombinatsiyalashgan mashina yaratilgan;

takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 30-maydagi 05/34-06/497-son ma'lumotnomasi). Natijada yerlarni ekishga tayyorlashda mehnat sarfi 25,3 foizga va bir gektar yerga sarflanadigan ekspluatatsion xarajatlar esa 21,9 foizga kamaygan;

kombinatsiyalashgan mashinaning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha-konstruktorlik hujjatlari (texnikaviy shartlar va chizmalar) «BMKB-Agromash» AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 30-maydagi 05/34-06/497-son ma'lumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan ish jarayoni va asoslangan parametrlarga ega bo'lgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha

jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 111 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Masalaning quyilishi va tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda yerlarga ekish oldidan ishlov berishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va texnika vositalari to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar, yerlarga ekish oldidan ishlov berishda qo‘llaniladigan kombinatsiyalashgan mashina va agregatlarning turlari, dala yuzasini ekish oldidan tekislashda qo‘llaniladigan mashina va ish organlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar tahlil etilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.


O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida kombinatsiyalashgan mashina uchun texnologik ish jarayoni takomillashtirilgan tekislagich ishlab chiqish va parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichining parametrlarini asoslash bo‘yicha nazariy tadqiqotlarning natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Kombinatsiyalashgan mashinaning takomillashtirilgan tekislagichi bosim prujinalari bilan jihozlangan parallelogram mexanizmlar 1 vositasida rama bilan sharnirli bog‘langan tekislovchi qism 2 va uning old qismiga o‘rnatilgan surgichlar 3 dan tashkil topgan (1-rasm). Tekislovchi qism harakat yo‘nalishiga nisbatan perpendikulyar o‘rnatilgan tik plankadan, surgichlar esa harakat yo‘nalishiga nisbatan ma‘lum bir burchak ostida o‘rnatilgan bir va ikki tomonlama plankalardan iborat etib ishlangan.

Takomillashtirilgan tekislagich kombinatsiyalashgan mashinaning ramasiga uning surgichlari yumshatkich panjalarning izidan yuradigan etib o‘rnatiladi. Chunki bunda ular tomonidan yumshatkich va o‘qyoysimon panjalar orasida hosil bo‘ladigan do‘ngliklarni egatlarga surilishi va tekislab ketilishi ta‘minlanadi.

Ish jarayonida surgichlar o‘qyoysimon panjalar tomonidan hosil bo‘lgan notikisliklar do‘ngliklari tuprog‘ini yon tomonlarga surib, ularning egatlarini to‘ldirib

ketadi, tekislovchi qism esa bo‘ylama yo‘nalishdagi do‘ngliklarni pastliklarga suradi. Buning natijasida mashina yumshatkich va o‘qyoysimon panjalari tomonidan ishlov berilgan qatlam yuzasining bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlarda talab darajasida hamda bir tekis tekislanishi ta’minlanadi.




Quyidagilar kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichining asosiy parametrlari va ish rejimlari hisoblanadi: Q_n – parallelogramm mexanizm bosim prujinasi tomonidan tekislagichga beriladigan bosim kuchi (bosim prujinasining taranglik kuchi), N; $2\beta_c$ – surgichlarning ochilish burchagi, °; a – surgichlar orasidagi ko‘ndalang masofa, m; H_c – surgichlarning balandligi, m; H_t – tekislovchi qismning balandligi, m; B_c – surgichlarning qamrash kengligi, m; L_1 – tekislagich va o‘qyoysimon panjalar orasidagi bo‘ylama masofa, cm; α – tekislagich parallelogramm mexanizmi bo‘ylama tortqilarining gorizontga nisbatan pastga og‘ish burchagi, °; V – harakat tezligi, m/s.

Tekislagich parallelogramm mexanizmi bosim prujinasining taranglik kuchi quyidagi keltirib chiqarilgan ifoda bo‘yicha aniqlandi:

$$Q_n = \frac{\left[q_0(1+k_v V) \left(B_m h_m \Delta_m + \frac{2n_o B_c h_c \Delta_c}{\sin \beta_c} \right) - mg \right] \sqrt{l^2 + d^2}}{d}, \quad (1)$$

bunda q_0 – tuproqning hajmiy ezilish koeffitsenti, H/m³; V – kombinatsiyalashgan mashinaning harakat tezligi, m/s; B_m – tekislagichning qamrash kengligi, m; h_m – tekislagichning tuproqqa botish chuqurligi, m; Δ_m – tekislagichning qalinligi, m; n_o – kombinatsiyalashgan mashinadagi o‘qyoysimon panjalar soni; h_c – surgichning tuproqqa botish chuqurligi, m; Δ_c – surgichning qalinligi, m; mg – tekislagichning og‘irlik kuchi, N; l – parallelogramm mexanizm bo‘ylama tortqilarining uzunligi, m; d – parallelogramm mexanizmning qo‘zg‘almas sharnirlari orasidagi tik masofa, m.




1 – parallelogramm mexanizm;
2 – tekislovchi qism; 3 – surgichlar
1-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichining sxemasi va parametrlari

(1) ifodadan ko‘rinib turibdiki, tekislagich parallelogramm mexanizmi bosim prujinasining taranglik kuchi tuproqning hajmiy ezilish koeffitsenti, agregatning harakat tezligi, kombinatsiyalashgan agregatga o‘rnatilgan o‘qyoysimon panjalar soni, tekislagich va surgichning qamrash kengliklari, tekislagich va surgichning

tuproqqa botish chuqurligi, ularning qalinligi, surgichning ochilish burchagi hamda parallelogramm mexanizmning o'lchamlariga bog'liq.

Surgichlarning qamrash kengligi va balandligi 2-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib, kombinatsiyalashgan mashinaning yumshatkichi va o'qyoysimon panjalardan hosil bo'ladigan notekisliklar to'liq tekislanishi shartidan aniqlandi.



2-rasm. Surgichlarning qamrash kengligi va balandligini aniqlashga doir sxema

Buning uchun ular do'ngliklarining tepa qismi egatlarga surilishi va quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

$$B_c \geq AD = 2AC = 2BCctg\psi_T = 2 \cdot 0,5h_Hctg\psi_T = h_Hctg\psi_T \quad (2)$$

va

$$H_c \geq BC = 0,5h_H, \quad (3)$$

bunda h_H – dala yuzasida hosil bo'ladigan notekisliklarning balandligi, m; ψ_T – tuproqning tabiiy to'kilish burchagi, °;

$h_H=10$ cm va $\psi_T=38^\circ$ qabul qilinib (2) va (3) ifodalar bo'yicha o'tkazilgan hisoblashlar surgichlarning qamrash kengligi va balandligi mos ravishda kamida 13 sm va 5 sm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

Surgichlar orasidagi ko'ndalang masofani kombinatsiyalashgan mashinaning yumshatkich yoki o'qyoysimon panjalari orasidagi ko'ndalang masofaga teng etib qabul qilindi, ya'ni

$$a = a_{yu} = a_{o'}, \quad (4)$$

bunda a_{yu} – kombinatsiyalashgan mashinaning yumshatkich panjalari orasidagi ko'ndalang masofa, m; $a_{o'}$ – kombinatsiyalashgan mashinaning o'qyoysimon panjalari orasidagi ko'ndalang masofa, m.

Bu shart bajarilsa dala yuzasidagi notekisliklarning har bir do'ngligini bitta surgich uning o'ng va chap tomonlarida joylashgan egatlarga surishi va demak yuqori ish sifatiga erishilishi ta'minlanadi.

Takomillashtirilgan tekislagich tekislovchi qismining balandligi. O'tkazilgan kuzatuvlarimiz ish jarayonida takomillashtirilgan tekislagichning tekislovchi qismi oldida ma'lum miqdordagi tuproq uyulishini ko'rsatdi. Buni hisobga olganda uning balandligini quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi

$$H_T \geq K_u H_c, \quad (5)$$

bunda K_u – tekislovchi qism oldida tuproqning uyulishini hisobga oladigan koeffitsent.

$K_u = 2$ qabul qilinib va (5) ifodaga N_c ning yuqorida aniqlangan qiymatini qo‘yib tekislovchi qismning balandligi kamida 10 cm bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Surgichning ochilish burchagini aniqlash uchun uning o‘ng tomonini gorizontalkda tuproq bo‘laklari bilan ta’sirlashish jarayoni tadqiq etildi va quyidagi ifoda olindi


$$2\beta_c = \frac{\pi}{2} - \varphi, \quad (6)$$

bunda φ – tuproqni surgichning ish sirtiga ishqalanish burchagi,°.

Bu olingan ifodaga φ ning ma’lum qiymatlarini qo‘yib (30-36°), surgichning ochilish burchagi 54-60° oralig‘ida bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Tekislagich-zichlagichning bo‘ylama-tik tekislikdagi tik tebranishlari.

Dala yuzasidagi notekisliklar va tuproq fizik-mexanik hossalarning o‘zgaruvchanligi tufayli kombinatsiyalashgan mashinaning ish jarayonida tuproq tomonidan tekislagichga ta’sir etadigan (3-rasm) reaksiya kuchlari doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Shu sababdan tekislagich mashina bilan ilgari lanma harakat qilishdan tashqari Z o‘qi bo‘yicha tik yo‘nalishda uning tuproqqa ta’sir darajasini o‘zgarishiga olib keladigan majburiy tebranma harakat ham qiladi. Bu tekislagichning ish ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



a, b – mos ravishda tekislagichning muvozanat va muvozanatdan og‘gan holatlari
3-rasm. Tekislagichning bo‘ylama tik-tekislikdagi tebranma harakatini tadqiq etishga doir hisobiy sxema

Tekislagichning ta’kidlangan tebranishlarini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sir darajasi tebranishlar amplitudasiga bog‘liq: amplituda qanchalik kichik bo‘lsa tekislagich tebranishlarining uning ish ko‘rsatkichlariga salbiy ta’siri shunchalik kam bo‘ladi. Bunga erishish yo‘llarini aniqlash maqsadida tekislagichning tik tebranishlari tadqiq etildi va tekislagich tik majburiy tebranishlarining amplitudasini aniqlash imkonini beradigan ushbu ifoda olindi

$$A_T = \frac{1}{m} \sum_{n=1}^{n_1} \frac{\Delta R_Z^{n1}}{\sqrt{\left[\frac{1}{m} \left(\frac{C_n d}{\sqrt{l^2 + d^2}} + S_m C_m \right) - (n\omega)^2 \right]^2 + \left(\frac{S_m b_m}{m} \right)^2 (n\omega)^2}}, \quad (7)$$


bunda m – tekislagich-zichlagichning massasi, kg; ΔR_Z^n – o‘zgaruvchan kuch garmonikasining amplitudasi, N; S_m – tekislagich tayanch tekisligining yuzasi, m^2 ; C_m – tuproqning tekislagichning bir birlik yuzasiga keltirilgan bikrligi, N/m^3 ; $n=1,2,\dots,n_1$ – garmonikalar nomeri; ω – o‘zgaruvchan kuchlarning aylanma chastotasi, s^{-1} .

Ish jarayonida parallelogramm mexanizmlarning bo‘ylama tortqilari gorizontal yoki unga yaqin holatni egallab ishlaganda tekislagich majburiy tebranishlarining amplitudasi minimal qiymatga ega bo‘ladi va yuqori ish ko‘rsatkichi ta‘minlanadi.

Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichining parametrlarini asoslash bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlarning natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida nazariy tadqiqotlar natijalarini tekshirib ko‘rish hamda kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichi parametrlarining kam energiya sarflagan holda tuproqqa sifatli hamda agrotexnika talablari darajasida ishlov berilishini ta‘minlaydigan qiymatlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tajribalar maxsus ishlab chiqilgan qurilmadan foydalanib agregatning 6 va 8 km/h tezliklarida o‘tkazildi. Eksperimental tadqiqotlarda yumshatkichlar va tekislagich orasidagi bo‘ylama masofa, parallelogramm mexanizm bo‘ylama tortqilarining gorizontalga nisbatan pastga og‘ish burchagi, surgichning ochilish burchagi va balandligi hamda tekislagiga beriladigan tik yuklanishni dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, tuproqning uvalanish sifati va qurilmaning tortishga qarshiligiga ta‘siri o‘rganildi.

4-rasmdagi grafiklardan ko‘rinib turibdiki kombinatsiyalashgan mashina o‘qyoysimon panjalari va tekislagichi orasidagi bo‘ylama masofa ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi kamayib borgan, ya‘ni bunda dala yuzasining tekislanish sifati yaxshilangan. Buni ushbu masofa kichik bo‘lganda kombinatsiyalashgan mashina o‘qyoysimon panjalari va tekislagichi orasiga yirik kesaklar va begona o‘t hamda o‘simlik qoldiklarining tiqilib qolishi bilan izohlash mumkin.




1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo‘lganda
4-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina o‘qyoysimon panjalari va tekislagichi orasidagi bo‘ylama masofani uning ish ko‘rsatkichlariga ta‘siri

Kombinatsiyalashgan mashina o'qyoysimon panjalari va tekislagichi orasidagi bo'ylama masofani 15 cm dan 30 cm gacha ortishi o'lchami 25 mm dan kichik tuproq fraksiyalari miqdorini ortishiga va tortishga solishtirma qarshilikni har ikkala harakat tezligida ham oldin tezroq, keyin esa sekinroq kamayishiga olib kelgan.

Kombinatsiyalashgan mashina o'qyoysimon panjalari va tekislagichi orasidagi bo'ylama masofa ortishi bilan o'lchami 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdorining ortishi va tortishga solishtirma qarshilikning kamayishini ham yuqorida ta'kidlangan sabablar bilan izohlash mumkin.

5-rasmdagi grafiklar tahlili shuni ko'rsatadiki, kombinatsiyalashgan mashina tekislagichi o'rnatilgan parallelogramm mexanizm bo'ylama tortqilarining gorizontga nisbatan pastga og'ish burchagi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi ortib borgan, ya'ni bunda dala yuzasining tekislanish sifati yaxshilangan.

Buni parallelogramm mexanizm bo'ylama tortqilarining gorizontga nisbatan pastga og'ish burchagi ortishi bilan unga ta'sir etuvchi kuchlar va tuproq fizik-mexanik xossalari o'zgaruvchanligini tekislagichning tuproqqa botishiga ta'siri ortganligi va aksincha bo'lganda, ya'ni parallelogramm mexanizmning bo'ylama tortqisining gorizontga nisbatan pastga og'ish burchagi kamayganda yoki tortqi gorizont holatni egallab ishlaganda unga ta'sir etuvchi kuchlar va tuproq fizik-mexanik xossalarning ta'siri to'liq bartaraf etilishi bilan izohlash mumkin.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo'lganda

5-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichi o'rnatilgan parallelogramm mexanizm bo'ylama tortqilarining gorizontga nisbatan pastga og'ish burchagini uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri


Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichi o'rnatilgan parallelogramm mexanizm bo'ylama tortqilarining gorizontga nisbatan pastga og'ish burchagini 0° dan 15° gacha ortishi har ikkala harakat tezligida ham o'lchami 25 mm dan kichik tuproq fraksiyalari miqdorini va tortishga solishtirma qarshilikni kamayishiga olib kelgan.

Bularni ham yuqorida keltirib o'tilgan sabablar bilan izohlash mumkin.

6-rasmda surgichning ochilish burchagi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi har ikkala harakat tezligida botiq parabola qonuniyati bo'yicha o'zgargan (oldin kamaygan so'ngra ortgan). Bu nazariy tadqiqotlarning natijalarga asosan ushbu burchak $55-60^\circ$ oralig'ida bo'lganda surgichning tuproq bilan ta'sirlashish vaqti minimal bo'lishi va natijada tuproqni surgichning ishchi sirtiga yopishmasligi va ularning

oldida uyulmasligi bilan izohlanadi.

Surgichning ochilish burchagini 50° dan 80° gacha ortishi o‘lchami 25 mm dan kichik tuproq fraksiyalari miqdorini ortishiga olib kelgan. Ammo ortish jadalligi surgichining ochilish burchagi ortishi bilan kamayib borgan.




1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo‘lganda

6-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichi surgichining ochilish burchagini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Surgichning ochilish burchagi 50° dan 60° gacha ortishi kombinatsiyalashgan mashinaning tortishga solishtirma qarshiligini kamayishiga, 60° dan 80° gacha ortishi esa tortishga solishtirma qarshilikni ortishiga olib kelgan. Buni ham yuqorida keltirilgan sabablar bilan izohlash mumkin.

7-rasmda keltirilgan grafik bog‘liqliklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, surgichning balandligi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi kamayib borgan, ya’ni bunda dala yuzasining tekislanish sifati yaxshilangan.

Buni surgichning balandligi kichik bo‘lganda uning ustidan ko‘plab tuproq o‘tib ketganligi bilan izohlash mumkin. Balandlik ortganda tuproq bo‘laklarini uning ustidan o‘tib ketishi kamaygan.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo‘lganda


7-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichi surgichining balandligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Surgichning balandligini 6 cm dan 12 cm gacha ortishi har ikkala harakat tezligida ham tuproqning uvalanish darajasini, ya’ni o‘lchami 25 mm dan kichik bo‘lgan tuproq fraksiyalari miqdorini va tortishga solishtirma qarshilikni ortishiga olib kelgan.

8-rasmda keltirilgan grafik bog‘liqliklardan ko‘rinib turibdiki, kombinatsiyalashgan mashina tekislagichiga beriladigan solishtirma tik yuklanish ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi kamayib borgan, ya’ni bunda dala yuzasining tekislanish sifati

yaxshilangan. Buni tik yuklanishni ortishi tekislagichni tuproqqa botiruvchi kuchning ortishiga olib kelishi bilan izohlash mumkin.

Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichiga beriladigan solishtirma tik yuklanishni 0,5 kN/m dan 1,1 kN/m gacha ortishi tuproqning uvalanish darajasini, ya'ni o'lchami 25 mm dan kichik bo'lgan tuproq fraksiyalari miqdorini va tortishga solishtirma qarshilikni har ikkala harakat tezligida ham ortishiga olib kelgan.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo'lganda

8-rasm. Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichiga beriladigan solishtirma tik yuklanishni uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri

Yuqorida keltirilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida tekislagich-zichlagich parametrlarini maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida Xartli 4 rejasi bo'yicha ko'p omilli tajribalar o'tkazildi. Tadqiqotlarni o'tkazishda surgichining ochilish burchagi (X_1), surgichning balandligi (X_2), tekislagichga beriladigan solishtirma tik yuklanish (X_3) hamda agregatning harakat tezligi (X_4) uning sifat va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi va ularning sathi va o'zgarish oraliqlarining qiymatlari belgilandi.

Ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezonlari sifatida dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi (Y_1 , cm), tuproqning uvalanish darajasi (Y_2 , %) hamda tekislagichning tortishga solishtirma qarshiligi (Y_3 , kN/m) qabul qilindi.

Tajriba natijalariga ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi bo'yicha (Y_1 , cm):

$$Y_1 = 1,519 + 0,251 X_1 - 0,187 X_2 - 0,133 X_3 + 0,080 X_4 + 0,079 X_1^2 - 0,031 X_1 X_2 - 0,022 X_1 X_3 + 0,030 X_1 X_4 + 0,024 X_2^2 - 0,047 X_2 X_3 + 0,053 X_2 X_4 + 0,034 X_3^2 + 0,064 X_3 X_4 - 0,039 X_4^2; \quad (8)$$

- tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha (Y_2 , %)

$$Y_2 = 87,589 + 1,331 X_1 + 1,420 X_2 + 1,798 X_3 + 1,130 X_4 - 0,342 X_1^2 - 0,362 X_1 X_2 - 0,412 X_1 X_3 + 0,362 X_1 X_4 - 0,394 X_2^2 + 0,388 X_2 X_4 - 1,044 X_3^2 - 0,644 X_4^2; \quad (9)$$

- tekislagichning tortishga solishtirma qarshiligi bo'yicha (Y_3 , kN/m):

$$Y_3 = 5,700 + 0,239 X_1 + 0,180 X_2 + 0,180 X_3 + 0,455 X_4 - 0,119 X_1^2 - 0,064 X_1 X_2 - 0,032 X_1 X_3 + 0,064 X_1 X_4 - 0,062 X_2^2 - 0,159 X_2 X_3 - 0,062 X_3^2 + 0,043 X_3 X_4 + 0,146 X_4^2. \quad (10)$$

Olingan (8-10) regressiya tenglamalaridan ko'rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezirali ta'sir ko'rsatgan.

Regressiya tenglamalari Y_1 mezon ko'pi bilan ± 2 cm bo'lishi, Y_2 mezon 80 % dan kam bo'lmasligi, Y_3 mezon minimal qiymatga ega bo'lish shartlaridan birgalikda yechilib, 6-8 km/h harakat tezligi oralig'ida omillarning ushbu shartlarining bajarilishini ta'minlovchi quyidagi maqbul qiymatlari aniqlandi: surgichining ochilish burchagi 52° - 55° , uning balandligi 10-11 cm hamda tekislagichga beriladigan solishtirma tik yuklanish 0,82-0,85 kN/m oralig'ida bo'lishi lozim. Omillarning ushbu qiymatlarida tekislagich-zichlagich tomonidan ishlov berilgan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi $\pm 1,42$ - $\pm 1,53$ cm, tuproqning uvalanish darajasi 84,30-85,09 % hamda tortishga qarshiligi 5,15-5,82 kN/m ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning tajriba nusxasi va uni qo'llashdan olingan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina tajriba nusxasining texnik tavsifi, dala sinovlarining natijalari va uning iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Sinovlar jarayonida takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko'rsatkichlari qo'yilgan talablarga mos bo'ldi.

Takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina qo'llanilganda 1 gektar maydonga sarflanadigan mehnat sarfi 29,85 foizga va ekspluatatsion xarajatlar 19,14 foizga kamayadi. Bunda bitta mashinaga yillik iqtisodiy samara 54363479,3 so'm ni tashkil etadi.

XULOSA

“Kombinatsiyalashgan mashina tekislagichining texnologik ish jarayonini takomillashtirish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan mashina va ish organlari hamda ular bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning tahlili mavjud kombinatsiyalashgan mashinalarda qo'llaniladigan tekislagichlarning texnologik ish jarayonini takomillashtirish va parametrlarini asoslash yerlarni chigit va boshqa ekinlar urug'ini ekishga tayyorlashda ish sifati va energiyahajmdorlikni kamaytirish imkonini berishini ko'rsatdi.

2. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida kombinatsiyalashgan mashina tekislagichning texnologik ish jarayoni takomillashtirildi va konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi, uning parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar olindi. O'tkazilgan hisoblashlarga asosan surgichlarning qamrash kengligi va balandligi mos ravishda kamida 13 sm va 5 sm, ular orasidagi ko'ndalang masofa 45 sm, surgichlarning ochilish burchagi 54 - 60° oralig'ida hamda tekislagich tekislovchi qismining balandligi kamida 10 sm bo'lishi kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagich tomonidan belgilangan texnologik jarayon sifatli bajarilishi ta'minlanadi.

3. Tekislagich o'rnatilgan parallelogramm mexanizmlarning bo'ylama tortqilari

ish jarayonida gorizontal yoki unga yaqin holatni egallab ishlashi ta'minlanganda ish sifati yuqori bo'lishiga erishiniladi.

4. Tekislagich surgichining ochilish burchagi 52° - 55° , uning balandligi 10-11 sm hamda tekislagichga beriladigan solishtirma tik yuklanish $0,82$ - $0,85$ kN/m oralig'ida bo'lishi agregatning $6,0$ - $8,0$ km/soat harakat tezliklarida kam energiya sarflagan holda tuproqqa talab darajasida ishlov berish imkonini yaratadi.

5. Takomillashtirilgan tekislagich bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinani qo'llash mehnat sarfini $29,85$ foizga va ekspluatatsion xarajatlar $19,14$ foizga kamaytirish va buning hisobiga bitta mashinadan yillik $54363479,3$ so'm iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РнД.03/30.06.2020.Т.111.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

ШАРИПОВ ШУХРАТ ПУЛАТОВИЧ

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА
РАБОТЫ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ВЫРАВНИВАТЕЛЯ
КОМБИНИРОВАННОЙ МАШИНЫ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РнД)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/T3359.

Диссертация выполнена в научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.qmii.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Тухтакузиев Абдусалим
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Равшанов Хамрокул Амиркулович
доктор технических наук, доцент
Гайбуллаев Бурхонжон Шерматжонович
доктор философии по техническим наукам (PhD)

Ведущая организация: Бухарский институт управления природными ресурсами “ТИКХММИ” МТУ

Защита диссертации состоится «28» ноября 2023 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD 03/30.06.2020.T.111.02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225-ый. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер 82). (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz)

Автореферат диссертации разослан «06» ноября 2023 года.

(Протокол рассылки № 34 «06» ноября 2023 года).



Ф.М.Маматов
Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Д.Ш.Чуянов
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

З.Л.Батиров
Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ведущее место занимает производство и внедрение энерго-ресурсосберегающих и высокопроизводительных почвообрабатывающих машин. «Если учесть, что в мировом масштабе площадь земель для предпосевной обработки составляет 1,6 млн. гектаров»¹, то одним из важнейших задач считается разработка энерго-ресурсосберегающих почвообрабатывающих машин и орудий с высоким качеством работы и производительностью. В этом аспекте особое значение имеет освоение производства и применение комбинированных машин выполняющие совместно все технологические процессы по подготовке почвы к посеву за один проход по полю.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических основ ресурсосберегающих технологий подготовки полей перед посевом семян сельскохозяйственных культур и технических средств для их осуществления. В этом направлении, в растениеводстве республики наряду с хлопководством выращиваются продукции зерноводства, овощеводства, бахчеводства и садоводства. Для обеспечения народа и промышленности республики обильной, дешевой и качественной сельскохозяйственной продукцией требуется внедрение в производства передовых технологий, качественное проведение агротехнических мероприятий по выращиванию сельскохозяйственных в кратких сроках и эффективное использование сельскохозяйственной техники созданных на основе последних достижений науки и техники.

В республике особое внимание уделяется эффективному использованию земель, внедрению современных ресурсосберегающих техники и технологий с высокой производительностью, обеспечивающих получение высоких урожаев сельскохозяйственных культур. В стратегии развития сельского хозяйства республики Узбекистан на 2020-2030 годы намечены задачи в частности, «... внедрение механизмов снижения государственного участия и повышения инвестиционной привлекательности в сфере, предусматривающих увеличение притока частного инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста сельского хозяйства и пищевой отрасли, рационального использования земельных и водных ресурсов, повышения производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшения качества продукции»². При выполнении этих задач, в частности, важными задачами является разработка комбинированных машин выполняющие совместно все технологические процессы (рыхление почвы, выравнивание поверхности поля, уплотнение и образование на поверхности поля мелкокомковатой слой почвы) по подготовке почвы к посеву за один проход по полю и обоснование параметров их рабочих органов, обеспечивающих качества работы в требуемой

